# O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

**"RO’YXATGA OLINDI"**

**№ VM-343-53407-4.04**
**"1" iyul 2003 y.**

**"TASDIQLANDI"**
**O’zbekiston Respublikasi**
**Oliy va o’rta maxsus**
**ta’lim vazirligi**

______________________

**"8" iyul 2003 y.**

# BANK AUDITI
## fanidan
## DASTUR

**Oliy ta’limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"**
**ta’lim sohasidagi 5340700 - "Bank ishi"**
**bakalavriat yo’nalishi uchun**

**Toshkent - 2003**

**Tuzuvchilar:** dots. Norqobilov S.,
k.o'q. Ortiqov U. D.

**Taqrizchilar:** k.o'q. Mirzagaldieva Z. Q.,
k.o'q. Kenjaev M. G'.

"Bank auditi" fani etakchi mutaxassislik fanlaridan biri bo'lib, unda bank auditining vazifalari, banklarda ichki auditni tashkil qilish, auditorlik tashkilotlari, ularning huquq va majburiyatlari, naqd pul hamda boyliklarni audit qilish, hisob-kitob operatsiyalarini audit qilish, kredit operatsiyalarini, bank daromadlari va xarajatlari hisobi auditi va shunga o'xshash bir qancha mavzular yoritiladi.

"Банковский аудит" является одним из ведущих профилирующих предметов. В нём освещаются вопросы, связанные с организацией банковского аудита, законодательной и правовой базой аудиторской деятельности, обязаностями аудитора, аудитом наличных денег и ценностей, аудитом бухгалтерских операций, аудитом кредитных операций, аудитом банковской прибыли, расходов и др.

Banking audit is one of the leading professional subjects. There are topics about banking audit, creation of internal banking audit, and it organizations and their laws and obligations, audit of cash and values? Audit of accounting operations, audit of credit operations, audit of bank's income and expenses and that kind of topics are discussed.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

## 1. SO'Z BOShI

### Bank auditi fanini o'qitishning maqsadi va vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-sonli qaroriga bilan tasdiqlangan davlat ta'lim standartiga asosan "Bank auditi" fani o'qitiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida turli mulkchilik shakllarining tashkil topishi hamda rivojlanishi tijorat banklarining ham ko'payishi va rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bank auditi ushbu banklarda amalga oshirilayotgan operatsiyalarni nazorat qilish orqali bank foydasini oshirishga qaratilgandir.

**"Bank auditi" fani bo'yicha talabalarning bilimiga, uquviga va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar**

Ushbu kursda bank auditi haqida tushuncha, audit metodlari va turlari, kassa operatsiyalari auditi, hisob-kitob operatsiyalari auditi, kredit operatsiyalari auditi, valyuta operatsiyalari hamda boshqa operatsiyalar auditi nazariy va amaliy jihatdan ko'rib chiqilganligi bois quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

- talabalar fanni o'rganish davrida har bir o'tiladigan mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan so'raladigan "tayanch" ibora, test savollariga javob berib, tegishli masalani echa olishi;
- o'qish davrida yozma nazorat ishlarini bajarishi va referatlar tayyorlashi;
- fanni o'zlashtirish natijasida va kelajakda talaba Bank auditi sohasida bo'ladigan o'zgarishlarni tahlil qilishni bilishi lozim.

**O'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi**

Bu fan ko'pgina iqtisodiy fanlar bilan bog'liq. Bank auditi, pul, kredit va banklar, bank ishi, banklarda buxgalteriya hisobi, monetar siyosat va boshqa mutaxassislik fanlar bilan uzviy bog'liq.

Masalan, kredit operatsiyalari auditi, bank ishi fanida kredit berishni o'rgansak, auditda uning berilishi va qaytarilishini nazorat qilinamiz.

**Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar**

Fanni o'qitishda zamonaviy audio va video texnikadan foydalaniladi. Ichki auditni o'rganish bo'yicha banklarga sayyor darslari uyushtiriladi, fanni o'rganishning asosiy qismi ma'ruzalari va seminar darslarida amalga oshiriladi. Bundan tashqari 3-4 mavzularda slaydlardan foydalaniladi.

**Fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar**

Fan "Bank ishi" mutaxassisliklarda 4 kursning 8-semestrida o'qitiladi. Uni mazmunini yoritish ma'ruza, seminar darslari, mustaqil ishlar bo'yicha olib boriladi.

**Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha hajmi**

Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarida mazkur kursga 60 soat vaqt ajratilgan. Ularning 20 soati ma'ruza, 20 soati amaliy mashg'ulotlar va 20 soati mustaqil ta'limdir.

# 2. FAN DASTURI

### Bank auditining mazmuni, maqsadi va vazifalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank auditi tushunchasi, uning mazmuni, maqsadi. Mustaqillik yillarida bank auditining rivojlanishi. *Bank auditining vazifalari.*

### Bank auditining metodi va turlari

Ichki auditni tashkil etishning umumiy qoidalari. Auditorlik risklari. *Audit qilishning huquqiy asoslari, auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish tartibi.* Auditorlik tashkilotlar va auditorlarning huquqlari hamda majburiyatlari.

### Naqd pul va kassa operatsiyalarining auditi

Naqd pul va boyliklarni audit qilish tartibi. Naqd pul va boyliklarni saqlash binolari va ularni qo'riqlash auditi. *Kassa va kassa operatsiyalarini audit qilish tartibi.*

### Hisob-kitob operatsiyalari auditi

*Mijozlarga ko'rsatilgan hisob-kitob operatsiyalarini auditdan o'tkazish tartiblari.* Chet el valyutasidagi va boshqa ayrim hisob-kitob operatsiyalarining auditi.

### Kredit operatsiyalarini rasmiylashtirish va hisobga olish auditi. (Muammoli kreditlarning auditi)

Kredit operatsiyalarini rasmiylashtirish tartibi, ularni hisobga olishning auditi, uning o'tkazilish tartibi.

Muammoli kreditlarni audit qilishning mazmuni va tartiblari. Faktoring opratsiyalari auditi, lizing operatsiyalari auditi. Trast operatsiyalari auditi.

### Tijorat banklari daromadlari, xarajatlari va foydasi auditi

*Daromadlarning hisobi auditi.* Xarajatlar hisobi auditi. Bank foydasi haqida tushuncha va uni audit qilish. Bank faoliyati va xarajatlari auditi bo'yicha auditorlik xulosalari, ularning bank faoliyatini samarali olib borishdagi ahamiyati.

### Debitorlar, kreditorlar va qimmatli qog'ozlar auditi

Tijorat banklarining debitor va kreditor korxonalar o'rtasidagi munosabatlarini audit qilish tartibi. Korxonalarning debitorlik qarzdorligi. Qimmatli qog'ozlar bilan bank operatsiyalar audit, uning maqsadi va vazifalari. Davlat qimmatli qog'ozlari bilan operatsiyalarni tekshirish. REPO bitimlarini tekshirish. Debitorlar va kreditorlar bilan audit qilish tartibi. Qimmatli qog'ozlar auditi.

### Valyuta operatsiyalari auditi

Valyuta operatsiyalari auditining mazmuni, ularni banklarda tashkil qilish, uning maqsadi, vazifalari va manbaalari. *Valyuta operatsiyalarini auditdan o'tkazish tartiblari.* Valyuta operatsiyasini va uning amal qilishini tekshirish. Ichki valyuta bozorida bankning valyuta operatsiyalari auditi. Valyuta almashinuv shaxobchalari faoliyatining auditi. Valyuta oldi-sottisini audit qilish. Eksport-import operatsiyalarini tekshirish.

**Tijorat banklarida asosiy vositalar va kam baholi, tez eskiruvchi buyumlarning auditi**

Tijorat banklarida asosiy vositalar ,ularning baholanishi va qayta baholanishini tekshirish. Tijorat banklari nomoddiy aktivlari auditi. Tijorat banklarida kam baholi aktivlar va ularni tekshirish. Tijorat banklarida tez eskiruvchi buyumlar, ularning holatini, saqlanishi va ishlatilishini tekshirish. Bankning asosiy vositalari va nomoddiy aktivlari tekshiruvi bo'yicha auditorlik xulosasi va uning muhokamasi.

**Auditorlik risklari va auditorlik xulosalalari**

Auditorlik risklari, ularning mazmuni va turlari. *Auditorlik xulosalari va ularni berish tartibi.* Auditorlik xulosalarining maqsadi. Auditorlik xulosalariga qo'yilgan talablar. Auditorlik xulosalarining keng ko'lamliligi va chuqurligi.

## 3. AMALIY MAShG'ULOTLARNING MAVZULARI

**Bank auditining metodi va turlari**

Bank auditining asosiy metodlari. Bank auditining turlari: ichki audit va tashqi audit. Ichki auditni tashkil etishning umumiy qoidalari. Auditorlik guruhlarini tuzish tartibi va ularning faoliyati va xulosalari. Audit qilishning huquqiy asoslari, auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish tartibi*. Auditorlik tashkilotlar va auditorlarning huquqlari hamda majburiyatlari.

**Naqd pul va kassa operatsiyalarining auditi**

Tijorat banklarida naqd pullarni audit qilish. Bankka tegishli boyliklarni audit qilish tartibi. Naqd pul va boyliklarni saqlash binolari hamda ularni qo'riqlash holatinig auditi. Kassa va kassa operatsiyalarini audit qilish tartibi*.

**Hisob-kitob operatsiyalari auditi**

Mijozlarga ko'rsatilgan hisob-kitob operatsiyalarini auditdan o'tkazish tartiblari. Chet el valyutasidagi va boshqa ayrim hisob-kitob operatsiyalarning auditi. Hisob-kitoblarni o'tkazish tartibiga rioya qilish tartibini tekshirish, schetlari olib borish tartibini tekshirish. banklararo hisob-kitoblarni o'tkazishni tekshirish. Hisob operatsiyalari talblariga rioya qilmaslik va ular bo'yicha choralar.

**Kredit operatsiyalarini rasmiylashtirish va hisobga olish auditi (Muammoli kreditlarning auditi)**

Tijorat banklarining aktiv kredit operatsiyalari auditi. Kredit operatsiyalarini rasmiylashtirish tartibi, ularni hisobga olishning auditi, uning o'tkazilish tartibi*. Tijorat banklarining kredit portfelini auditi. Tijorat bankining passiv kredit operatsiyalari, ularni rasmiylashtirishni tekshirish.

Muammoli kreditlarni audit qilishning mazmuni va tartiblari. Faktoring operatsiyalari auditi, lizing operatsiyalari auditi. Trast operatsiyalari auditi. Kredit operatsiyalari hisobining auditi. Muammoli kreditlarning hisobi va ularni qaytarilishi bilan bog'liq operatsiyalarining auditi.

**Tijorat banklari daromadlari, xarajatlari va foydasi auditi**

Tijorat banklari daromadlari hisobining auditi. Tijorat banklari xarajatlari hisobi auditi*. Tijorat banki foydasi va uni audit qilish tartibi.

**Debitorlar, kreditorlar va qimmatli qog'ozlar auditi**

Qimmatli qog'ozlarning turlari. Debitorlar va kreditorlar haqida tushuncha*. Qimmatli qog'ozlar auditi. Qimmatli qog'zlar bilan operatsiyalar hisobining auditi. Debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitob qilish tartibi va uni auditdan o'tkazish.

**Valyuta operatsiyalari auditi**

Valyuta operatsiyalarining iqtisodiy mazmuni. Valyuta operatsiyalarini banklarda tashkil qilish va ularning nazorati. Valyuta operatsiyalarini auditdan o'tkazish tartiblari*. Valyuta operatsiyalarining turlari. Tijorat banklarining valyuta birjasidagi faoliyati tahlili. Valyuta sotish va sotib olishni audit qilish. Pul almashtirish shaxobchalari faoliyati tahlili. Ochiq valyuta pozitsiyasini tekshirish.

**Kam baholi va tez eskiruvchi asosiy vositalar auditi**

Kam baholi va tez eskiruvchi asosiy vositalar tarkibi va tuzilishi. Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarni audit qilish tartibi. Kam baholi va tez eskiruvchi asosiy vositalarning hisobi va uni auditdan o'tkazish tartibi.

**Auditorlik risklari va auditorlik xulosalalari**

Auditorlik risklarining mazmuni va turlari. Auditorlik xulosalarini berish tartibi, ularning ahamiyati.. Auditorlik xulosalarining bank faoliyati uchun zarurligi va ahamiyati. Auditorlik risklarini olidini olish chora tadbirlari. Bank xavfsizligini ta'minlash yo'llari va usullari. Bank siri va unga rioya qilish.

## 4. TAVSIYa ETILAYoTGAN MAVZULAR BO’YIChA KO’RGAZMA NAMOYISh MATERIALLARI: INFORMATsION TEXNIK VOSITALAR

**Internet saytlari:** www.bizbook.ru, www.chtivo.ru.

Audit video jihozlar – mavzuga bag’ishlangan video kassetalar.

**Kodoskop orqali ko’rsatiladigan slaydlar:**

- Naqd pul va kassa operatsiyalarining auditi mavzusi bo’yicha 4ta slayd;
- Valyuta operatsiyalari auditi mavzusi bo’yicha 6ta slayd.

Ba’zi mavzularni o’qitishda audio va video texnika vositalaridan foydalaniladi.

## 5. O’ZLAShTIRIShNING NAZORATI

Fan bo’yicha talabalarning o’zlashtirishlarini baholash semestr (o’quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JB) – 35%;
- oraliq baholash (OB) - 35%;
- yakuniy baholash (YaB) - 30%.

JB va OB turlar va belgilangan ballar miqdori (o’quv rejasida fanga semestr (o’quv yili) uchun ajratilgan soatning)70%, yakuniy baholash esa 30% miqdorida belgilanadi.

Fan bo’yicha dastur to’la o’tilgandan keyin YaB "yozma ish" usulida (o’quv rejasiga ko’ra) o’tkaziladi.

Tayanch tushunchalariga asoslangan yozma ishni o’tkazish tartibi "Reyting tizimining yakuniy baholash bosqichida" "Yozma ish" usulini tadbiq etish bo’yicha Namunaviy nizom bilan belgilanadi.

Semestr o’quv yili davomida o’qitilgan fan bo’yicha 55 va undan yuqori foizni to’plagan talaba qoniqarli o’qiyotgan deb hisoblanadi. Fan bo’yicha maksimal ballning 55% idan kam ball to’plagan talaba qoniqarsiz o’qiyotgan (akademik qarzdor) deb hisoblanadi.

Semestr davomida fan bo’yicha to’plangan ballar quyidagi o’zlashtirish ko’rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86 - 100 - "a’lo" – 34,4 – 40,0 ball;
- 71 - 85 - "yaxshi" - 28,4 – 34,3 ball;

- 55 - 70 - "qoniqarli" - 22,0 – 28,3 ball.

## 6. ADABIYoTLAR

### Asosiy adabiyotlar


1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni. -T., 1995.
2. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. -T., 1996.
3. O'zbekiston Respublikasining "Valyutani muvofiqlashtirish haqida"gi Qonuni. -T., 1995.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari 1995 y 5 yanvardan 2001 yil 1 yanvargacha. T.: Adolat, 2000.
5. Karimov I.A. O'zbekiston 21 asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbeksiton, 1997.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va unga qarashli muassasa, korxona va tashkilotlar faoliyatini audit qilishga doir ko'rsatmalar. 27 iyun 1998 yil № 409.
7. Abdullaeva Sh.Z. Pul va pul tizimi. -T., 1997.
8. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. O'quv qo'llanma -T., 2000.
9. Abdullaeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. -T., 2000.
10. Bankovskoe delo: Upravlenie i texnologiya: Ucheb. posobie dlya VUZov. pod red. prof. A.N. Tovasheva, N. Yunitidana. -M., 2001.
11. Beloglazova G. Bankovskoe delo. -SPb.: Piter, 2002.
12. Beloglazova G.N. Denejnoe obrashenie i banki. -M., 2000.
13. Banki i bankovskoe delo / Pod. Red. I.T. Balabanova – SPb.: Piter, 2001.
14. Bank auditi. Ma'ruza matn - T., TMI, 2000.
15. Bonarev V.V. Finansoviy analiz. - SPb: Piter, 2001.
16. Bratko A.G. Bankovskoe pravo: Teoriya i praktika. –M.: PRIOR, 2000.
17. Vaxrin P.I. Finansoviy analiz v kommercheskix i nekommercheskix organizatsiyax: Ucheb. pos. –M.: Marketing, 2001.
18. Velesko E.I., Bikov A.A. Nepravskiy strategicheski menedjment. Delovaya igra. Delta; Posobie. - Mn.: BGEU, 2001.
19. Dengi, kredit, Banki. Tsennie bumagi. Praktikum: Ucheb. pos. dlya vuzov – Pod red. E.F. Jukova. - M.: YuNITI – DANA, 2001.
20. Jarkovskaya E. Bankovskoe delo. Kurs lektsiy. -M., 2002.
21. Iminov O.K. Kreditniy mexanizm v sovremennix usloviyax. Monografiya. - T.: TGEU, 2000.

22. Iqtisodiy yo'nalishlar choraklik nashr. O'zbekiston. Aprel-iyun. 2001.
23. Kazimogomedov A.A., Ilyasov S.M. Organizatsiya denejno-kreditnogo regulirovaniya. - M.: Finansi i statistika, 2001.
24. Mullajanov F. Bank tizimi. - T.: 2001.
25. Norqobilov S., Ortiqov U. Bank auditi. Ma'ruza matnlari. -T.: 2000.
26. Platonov V.Bankovskoe delo: strategicheskoe rukovodstvo. -M., 2000.
27. Papov V. Banki na perexode. -M., 2001.
28. Parfyonov K.G. Bankovskiy plan schetov i pravila vvedeniya buxgalterskogo ucheta. - M.: Gelios ARV, 2001.
29. Suyts V. Audit: obshiy, bankovskiy, straxovoy. Ucheb. - M.: 2001.
30. Smirnova L. Bankovskiy audit. Ucheb. pos. -M.: Finansi i statistika, 2001.
31. Savchuk V.P. Primekko S.I. Velichko E.G. Analiz azborka investitsionnix proektov: Ucheb. pos. – Kiev: Elga, 1999.
32. Stoyanova E.S. i dr. Upravlenie oborotnim kapitalam. –M: Perspektiva, 1998.
33. Fisher S., Dornbush R., Shmalenzi R. Ekonomika. -M., 2001.
34. Sharifxodjaev M. Ekonomicheskaya teoriya. -T., 1999.
35. Sheremet A.D. Finansovi analiz v komercheskom banke. -M.: Finansi i statistika, 2000.
36. Ergashev X.X. Uchyot denejnix sredstv, raschyotnix i kreditnix operatsiy: Ucheb.-prakt. pos – M.: Dom Dashkova, 2000.
37. **Internet saytlari:**

- www.banking.com – mintaqaviy banklar, assotsiatsiyalar va nashriyotlar bo'yicha bank sanoati resurslari direktorligi.
- www.banking.com/aba - Amerika banklari assotsiatsiyasi.
- www.state.ct.us/dob – Konnektikut banklari va kredit birlashmalari, kredit muassasalari va qo'riqlash sanoatini boshqaradi.

**Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Arens A., Lobbek D. Audit. Uchebnik. Per. s angl. 2001.
2. Balabanov I.T. Banki i bankovskoe delo. –SPb.: Piter, 2001.
3. Valentseva N. Sbornik zadach po bankovskomu delu. -M., 2001.
4. Gryaznova A. Finansovo-kreditniy entsiklopedicheskiy slovar. -M., 2002.
5. Dmitrieva I. Buxgalterskiy uchet i audit. -M.: FBK-Press, 2002.
6. Kurakov L. Sovremennie bankovskie sistemi. Ucheb. pos. -M., 2000.
7. Kolesnikov V. Bankovskoe delo. Ucheb. 4-e izd. -M., 2002.
8. Lavrushina O. Bankovskoe delo.. Ucheb. -M., 2002.

9. Makalskaya A.K. Vnutrenniy audit. -M., 2001.
10. Ostrovskaya O. Bankovskoe delo. Tolkoviy slovar. -M.: Gelios ARV, 2001.
11. Podolskiy V.I. Audit. Ucheb. dlya vuzov. -M.: Yuniti-Dana, 2001.
12. Rodjer Leroy Miller. Sovremennie dengi i bankovskoe delo. -M.: 2000.
13. Senchagov V. Finansi, denejnoe obrashenie i kredit. Ucheb. -M.: 2001.
14. Tavasiev A. Bankovskoe delo: upravlenie i texnologii. -M.: 2001.
15. Sheremet A.D. Audit. Ucheb. -M.: Infra, 2002.
16. Shaxbazova I. Buxgalterskiy uchet i audit. -M.: Tetra Sistems, 2002.